

T.QAYIPBERGENOVNING “RAXMAT, MUALLIM” POVESTINING O‘ZBEK TILIDAGI TARJIMASI BILAN O‘XSHASHLIK VA TAFOVUTLAR

Xabibullayeva Xurliman Muratbayevna,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti
2-kurs doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18666468>

Annotatsiya. Mazkur maqolada qoraqalpoq adabiyotining yirik namoyandasi To‘lepbergen Qayipbergenovning “Raxmet mug‘allim” qissasi va uning o‘zbek tiliga “Raxmat, muallim” nomi bilan tarjima qilinishi qiyosiy-lingvistik va madaniy-semantik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida asliyat va tarjima matnlari o‘rtasidagi mazmuniy sodiqlik, leksik va stilistik moslik, muallif uslubining saqlanish darajasi hamda milliy koloritning uzatilishi masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari qardosh tillar o‘rtasidagi badiiy tarjima jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy tarjima, qiyosiy tahlil, To‘lepbergen Qayipbergenov, “Raxmat, muallim”, qoraqalpoq va o‘zbek tillari, milliy kolorit.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительно-лингвистический и культурно-семантический анализ повести Тулепбергена Кайыпбергена «Ражмет мугаллим» и её узбекского перевода под названием «Ражмат, муаллим». В ходе исследования рассматриваются вопросы смысловой эквивалентности, лексико-стилистической адаптации, сохранения авторского стиля, а также передачи национального колорита в переводе. Полученные результаты позволяют выявить особенности художественного перевода между родственными тюркскими языками.

Ключевые слова: художественный перевод, сравнительный анализ, Тулепберген Кайыпберген, «Ражмат, муаллим», каракалпакский и узбекский языки, национальный колорит.

Abstract. This article presents a comparative linguistic and cultural-semantic analysis of To‘lepbergen Qayipbergenov’s novella “Raxmet Mugallim” and its Uzbek translation entitled “Rahmat, Muallim.” The study focuses on issues of semantic equivalence, lexical and stylistic adaptation, preservation of the author’s individual style, and the transmission of national color in translation. The findings highlight the specific features and challenges of literary translation between closely related Turkic languages.

Keywords: literary translation, comparative analysis, To‘lepbergen Qayipbergenov, “Rahmat, Muallim,” Karakalpak and Uzbek languages, national color.

Kirish. Badiiy tarjima adabiyotlararo madaniy mulohazaning muhim shakllaridan biri bo‘lib, u nafaqat bir tildagi matnni ikkinchi tilga ko‘chirish, balki muallifning estetik qarashlari, milliy tafakkuri hamda davr ruhini boshqa til vositasida qayta yaratishni ham taqozo etadi. Shu sababli, ayniqsa qardosh tillar o‘rtasidagi tarjimalar alohida ilmiy e‘tiborni talab qiladi, chunki til yaqinligi bir tomondan tarjimani yengillashtirsa, ikkinchi tomondan yashirin semantik va stilistik tafovutlarni yuzaga chiqaradi.

Ana shunday asarlardan biri qoraqalpoq adabiyotining yirik namoyandasi To‘lepbergen Qayipbergenov qalamiga mansub “Raxmet mug‘allim” qissasidir. Mazkur asar muallifning bolalik xotiralari asosida yaratilgan bo‘lib, unda ustoz siymosi insoniy kamolot, axloqiy tarbiya va ijtimoiy mas’uliyat timsoli sifatida talqin etiladi. Qissa nafaqat muallim va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarni, balki qishloq hayoti, jamoa fikri va tarbiya muammolarini ham chuqur yoritadi [1].

Shu bilan birga, asarning o‘zbek tiliga “Raxmat, muallim” nomi bilan tarjima qilinishi uning badiiy va tarbiyaviy ahamiyatini yanada kengroq o‘quvchilar doirasiga yetkazishga xizmat qilgan. Biroq tarjima jarayonida muallif uslubi, milliy kolorit va emotsional-ekspressiv birliklarning qay darajada saqlangani masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Chunki qoraqalpoq va o‘zbek tillarining genetik yaqinligi tarjimada so‘zma-so‘zlikka moyillikni kuchaytirishi mumkin, bu esa ayrim badiiy nozikliklarning yo‘qolishiga olib keladi [3, 523-525].

Bundan tashqari, qissada bolalar nutqi, og‘zaki muloqot shakllari va xalqona iboralar keng qo‘llangan bo‘lib, ularni o‘zbek adabiy tili me‘yorlariga mos holda tarjima qilish tarjimon oldiga murakkab vazifalarni qo‘yadi. Shu nuqtayi nazardan, asliyat va tarjima matnlarini qiyosiy o‘rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy-semantik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni ham ta’kidlash joizki, “Raxmat, muallim” qissasi tarjimasi orqali ikki qardosh xalqning pedagogik qarashlari, ustozga bo‘lgan hurmat tushunchasi va ma’naviy qadriyatlari o‘rtasidagi umumiylik va farqlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Demak, ushbu maqolada asliyat va tarjima o‘rtasidagi o‘xshashlik hamda tafovutlarni aniqlash, ularning sabablari va badiiy-estetik ta’sirini tahlil qilish asosiy maqsad qilib olinadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda To‘lepbergen Qayipbergenovning “Raxmet mug‘allim” qissasi va uning o‘zbek tiliga “Raxmat, muallim” nomi bilan amalga oshirilgan tarjimasi qiyosiy asosda tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi bir nechta o‘zaro bog‘liq ilmiy usullarga tayangan bo‘lib, ular asliyat va tarjima o‘rtasidagi o‘xshashlik hamda tafovutlarni kompleks ravishda aniqlash imkonini berdi.

Avvalo, qiyosiy-lingvistik metod asosiy usul sifatida qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida qoraqalpoqcha original matn va o‘zbekcha tarjima matni sahifa va epizodlar kesimida solishtirildi. Xususan, leksik birliklar, frazeologik ifodalar hamda grammatik tuzilmalar o‘zaro taqqoslanib, ularning semantik mosligi va funksional ekvivalentligi aniqlandi. Natijada, tarjimada so‘zma-so‘zlik va erkinlik nisbatining qay darajada saqlangani yuzaga chiqarildi.

Shu bilan birga, kontekstual tahlil metodi qo‘llanilib, so‘z va iboralarning faqat lug‘aviy ma’nosi emas, balki ularning kontekstda kasb etgan badiiy va emotsional qiymati ham hisobga olindi. Chunonchi, muallim va o‘quvchilar o‘rtasidagi dialoglar, bolalar nutqiga xos og‘zaki unsurlar hamda ichki monologlar aynan kontekst doirasida talqin qilindi. Bu esa tarjimada muallif uslubining qay darajada saqlanganini aniqlashga imkon berdi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida stilistik tahlil metodi muhim o‘rin egalladi. Ushbu metod orqali asliyat va tarjima matnlarida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari, jumladan, takrorlar, emotsional urg‘u, dialogik nutq va xalqona iboralar tahlil qilindi. Ayniqsa, qoraqalpoq tiliga xos ekspressiv birliklarning o‘zbek tilida qanday vositalar orqali berilgani alohida e’tiborga olindi.

Shuningdek, madaniy-semantik yondashuv asosida milliy koloritni ifodalovchi birliklar o'rganildi. Ya'ni qishloq hayoti, maktab muhiti, ustoz va shogird munosabatlariga oid madaniy realliyalar tarjimada qanday aks etgani tahlil qilindi. Bu borada tarjimonning moslashtirish, tushuntirish yoki qisqartirish strategiyalaridan qay darajada foydalangani aniqlashtirildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda funksional-ekvivalentlik nazariyasi tamoyillariga ham tayinildi. Mazkur yondashuv asosida tarjimada har bir birlikning nafaqat formal, balki kommunikativ vazifasi ham baholandi. Ya'ni tarjima matnining o'zbek o'quvchisiga ta'sir darajasi asliyatning qoraqalpoq o'quvchisiga ta'siri bilan qiyoslab ko'rildi.

Nihoyat, tahlil jarayonida olingan natijalar umumlashtirilib, interpretativ metod orqali izohlandi. Bu esa aniqlangan o'xshashlik va tafovutlarning sabablarini, ularning badiiy-estetik hamda tarbiyaviy ahamiyatini chuqurroq yoritish imkonini berdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, To'lepbergen Qayipbergenovning "Raxmet mug'allim" qissasining o'zbek tilidagi "Raxmat, muallim" tarjimasi umumiy mazmun va g'oyaviy yo'nalish jihatidan asliyatga sodiq holda amalga oshirilgan. Avvalo, syujet chizig'i, voqealar ketma-ketligi hamda muallim obrazi markaziy badiiy tayanch sifatida har ikkala matnda ham saqlangan.

Birinchiidan, muallim obrazining talqini tarjimada izchil berilganini ko'rish mumkin. Asliyatda muallim bolalar bilan ilk uchrashuvdayoq ularni tenglik va do'stlik ruhida tarbiyalashga intiladi. Jumladan, muallimning bolalarga murojaati orqali jamoaviylik g'oyasi ilgari suriladi. Tarjimada ushbu epizod mazmunan to'liq saqlanib, o'zbek o'quvchisiga tushunarli va tabiiy shaklda yetkazilgan. Natijada, muallim shaxsining tarbiyaviy va axloqiy nufuzi yo'qolmagan. Masalan, Qáne, balalar búginnen baslap bir-birimizge dospız, dep qol alısıńlar,-dedi. Bizler qol alıstıq. Muğallimniń aytqanı boyınsha endi bir-birewimizge dospız dedik.

Ikkinchiidan, dialogik nutqning uzatilishi masalasida ijobiy va nisbatan muammoli jihatlar aniqlangan. Asliyatda bolalar nutqi jonli, hissiy va ba'zan keskin ohangda ifodalangan bo'lib, bu ularning ruhiy holatini aniq ochib beradi. O'zbekcha tarjimada esa ushbu dialoglar adabiy me'yorlarga moslashtirilgan. Natijada, semantik mazmun saqlangan bo'lsa-da, ayrim joylarda emotsional keskinlikning yumshatilgani kuzatiladi.

Uchinchiidan, bolalik xotiralari va ichki monologlar tarjimada asosan muvaffaqiyatli berilgan. Qahramonning o'z-o'ziga murojaati, qo'rquv va ikkilanish holatlari asliyatda sodda, ammo chuqur psixologik ta'sirga ega tarzda tasvirlanadi. Tarjimada ushbu holatlar mantiqan to'g'ri uzatilgan bo'lsa-da, ayrim metaforik va ekspressiv birliklar soddalashtirilgan.

To'rtinchidan, milliy koloritni ifodalovchi tasvirlar masalasida qisman tafovutlar aniqlangan. Asliyatda qishloq hayoti, ota-onalarning bolalarga munosabati va jamoa fikri keng va batafsil yoritilgan. O'zbekcha tarjimada ushbu lavhalar saqlangan bo'lsa-da, ayrim etnografik detallar qisqartirilgan yoki umumiyroq birliklar bilan almashtirilgan.

Buning natijasida matn o'qilishi yengillashgan, biroq milliy rang-baranglik biroz susaygan.

Beshinchidan, leksik moslashtirish jarayonida tarjimon asosan funksional ekvivalentlikka tayangan. Masalan, qoraqalpoq tiliga xos murojaat va baholash birliklari o'zbek tilida semantik jihatdan yaqin, ammo stilistik jihatdan neytralroq birliklar bilan berilgan. Bu holat tarjimaning kommunikativ samaradorligini oshirgan bo'lsa-da, asliyatdagi ayrim emotsional nozikliklarning yo'qolishiga olib kelgan.

Umuman olganda, natijalar shuni ko'rsatadiki, tarjima jarayonida mazmuniy sodiqlik ustuvor bo'lgan, stilistik moslik esa qisman moslashtirish orqali ta'minlangan. Shunga qaramay, asarning asosiy g'oyasi – ustozga hurmat, insoniylik va tarbiya masalalari – har ikkala matnda ham birdek kuchli badiiy ta'sirga ega bo'lib qolgan.

Muhokama. Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, "Raxmet mug'allim" qissasining o'zbek tiliga tarjimasini umumiy badiiy va g'oyaviy mazmuni yetkazishda muvaffaqiyatli bo'lsa-da, ayrim lingvistik va stilistik tafovutlar muqarrar ravishda yuzaga kelgan. Mazkur tafovutlarni muhokama qilish jarayonida ularning sabablari, funksional ahamiyati hamda o'quvchi idrokiga ta'siri alohida e'tiborga olinadi.

Avvalo, tarjimada mazmuniy sodiqlik ustuvor tamoyil sifatida tanlangani yaqqol seziladi. Tarjimon syujet chizig'i, asosiy obrazlar va g'oyaviy yo'nalishni saqlab qolishga intilgan. Bu holat, bir tomondan, asarning tarbiyaviy mohiyatini o'zbek o'quvchisiga to'liq yetkazishga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ayrim joylarda muallifning individual uslubini ikkinchi planga surilishiga olib kelgan.

Shu bilan birga, qardosh tillar o'rtasidagi tarjimaning o'ziga xos murakkabligi ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Qoraqalpoq va o'zbek tillarining genetik yaqinligi sababli ayrim so'z va tuzilmalar bevosita tarjima qilingan. Natijada, leksik moslik yuqori darajada bo'lsa-da, ba'zi ekspressiv birliklar o'zbek adabiy tilida kutilgan badiiy ta'sirni to'liq bera olmagan. Bu esa tarjimada so'zma-so'zlik va erkinlik o'rtasidagi muvozanat masalasini dolzarb qilib qo'yadi.

Bundan tashqari, dialogik nutqning moslashtirilishi muhokamaga loyiq jihatlardan biridir. Asliyatda bolalar va kattalar nutqi jonli, hissiy va ba'zan keskin ohangda beriladi. Tarjimada esa ushbu keskinlik ko'pincha yumshatilgan, gaplar sintaktik jihatdan tartiblangan. Albatta, bu holat o'zbek adabiy tilining me'yorlariga mos keladi, biroq ayni paytda asliyatdagi tabiiylik va spontanlik darajasini qisman pasaytiradi.

Shuningdek, milliy koloritning uzatilishi masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qoraqalpoq qishlog'i hayoti, jamoa munosabatlari va tarbiya muhitiga xos detallarning ayrimlari tarjimada umumlashtirilgan yoki qisqartirilgan. Natijada, o'zbek o'quvchisi uchun matn yanada tushunarli bo'lgan, ammo etnografik rang-baranglik biroz susaygan. Bu holat tarjimonning moslashtirish strategiyasini ongli ravishda tanlaganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, muallim obrazining talqini ham muhokama markazida bo'lishi lozim. Asliyatda muallim obrazi ba'zan qat'iy, ba'zan hissiyotga boy tarzda tasvirlanadi.

Tarjimada esa u ko‘proq muvozanatli, pedagogik jihatdan ideal shaxs sifatida gavdalanadi. Bu o‘zgarish tarjimaning tarbiyaviy yo‘nalishini kuchaytirgan bo‘lsa-da, muallif yaratgan psixologik murakkablikni qisman soddalashtirgan.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarjimada yuzaga kelgan tafovutlar kamchilik sifatida emas, balki tarjima jarayonining tabiiy natijasi sifatida baholanishi lozim. Chunki tarjimon aslyat va tarjima tili o‘rtasidagi lingvistik, madaniy va stilistik tafovutlarni muvofiqlashtirishga intilgan. Natijada, “Raxmat, muallim” qissasi o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarli, ta’sirchan va tarbiyaviy ahamiyatga ega asar sifatida shakllangan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, To‘lepbergen Qayipbergenovning “Raxmet mug‘allim” qissasi va uning o‘zbek tiliga “Raxmat, muallim” nomi bilan amalga oshirilgan tarjimasi o‘rtasidagi qiyosiy tahlil mazkur tarjimaning umumiy mazmun va g‘oyaviy yo‘nalish jihatidan aslyatga sodiq holda bajarilganini ko‘rsatdi. Avvalo, asarning syujet chizig‘i, markaziy obrazlar tizimi hamda ustozga bo‘lgan yuksak hurmat g‘oyasi har ikkala matnda ham izchil saqlangan.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida tarjimada yuzaga kelgan ayrim leksik, stilistik va madaniy tafovutlar aniqlanib, ularning asosan til tizimlari va adabiy me‘yorlar farqi bilan bog‘liqligi isbotlandi. Xususan, qoraqalpoq tiliga xos emotsional-ekspressiv birliklar o‘zbek tilida ko‘pincha neytralroq vositalar orqali berilgan bo‘lib, bu holat tarjimaning o‘qilish qulayligini oshirgan, biroq ayrim badiiy nozikliklarning qisman yo‘qolishiga olib kelgan.

Bundan tashqari, muallim obrazining tarjimada nisbatan muvozanatli va pedagogik ideal sifatida talqin etilishi tarjimonning tarbiyaviy maqsadni ustuvor qo‘yganini ko‘rsatadi. Natijada, asarning axloqiy-ta’limiy ahamiyati kuchaygan bo‘lsa-da, aslyatdagi psixologik murakkablik ayrim o‘rinlarda soddalashtirilgan.

Shuningdek, milliy koloritni ifodalovchi etnografik va madaniy birliklarning tarjimada qisman umumlashtirilishi o‘zbek o‘quvchisi uchun matnni yanada tushunarli qilgan. Biroq bu holat ikki xalqning madaniy tafakkuri o‘rtasidagi nozik farqlarni to‘liq aks ettirish imkoniyatini biroz cheklagan.

Umuman olganda, “Raxmat, muallim” qissasi tarjimasi qoraqalpoq va o‘zbek adabiy aloqalarini mustahkamlovchi, qardosh tillar o‘rtasidagi tarjimaning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishda muhim manba bo‘la oladi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida pedagogik mavzudagi badiiy asarlar tarjimasini yanada mukammallashtirish, shuningdek, qardosh tillar o‘rtasidagi badiiy tarjima muammolarini chuqurroq o‘rganish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qaipbergenov T. Muğallimga rahmet. – Nukus: Bilim, 2016.
2. Sarsenbayev Konisbay Jaksilik Uli (2024). T.QAYÍPBERGENOV POVESTLERINIŇ SYUJETLIK ÓZGESHELIGI. Eurasian Journal of Academic Research, 4 (7), 96-101. doi: 10.5281/zenodo.12770671
3. TO‘LEPBERGEN QAIPBERGENOV ASARLARINING O‘ZBEK TILIGA TARJIMASI (“RAHMAT, MUALLIM” QISSASI MISOLIDA). (2025). Conferences, 1(1), 523-525.
4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. - Тошкент: Ўзбекистон, 2002. - Б. 124.
5. Қаипбергенов Т. Раҳмат, муаллим. – Тошкент: Шарк, 2019.
6. Рахимов А. Ўзбек романи поэтикаси (сюжет ва конфликт): Филол. фанлари д-ри дисс. автореф. - Ташкент: 1993. - Б.12.
7. Сағыйдуллаева Ж. Каракалпак; повестьлеринде стильлик изленислер (1980-жыллар). - Нокис: Каракалпакстан, 2020. - Б.79.

